



2-SHO‘BA: NUTQ MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY METOD VA TEXNOLOGIYALARI

KASBIY SIFATLARNI OSHIRISHDA NUTQIY MULOQOTNING O‘RNI

Sobirova Maxbuba Yusupdjanovna
pedagogika fanlari doktori, Namangan
davlat pedagogika instituti professori.

E-mail: maxbubaxonsobirova@gmail.com

Annotatsiya: maqolada talabalarning til va nutqiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslari, ularning ona tilini bilishi va nutqiy muloqot ko‘nikmalarining darajasini oshirish, bu o‘rinda kasbiy sifatlar muhimligi kabi masalalar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: til ta’limi, til va nutqiy muloqot, kasbiy muhim sifatlar, kasbiy mahorat, kasbiy kompetentlik.

Kirish. O‘zbekistonda tilni milliy-mental va lingvopedagogik tamoyillar mujassam bo‘lgan tadqiqot metodlari asosida o‘qitilishini tashkil etish, o‘rganish, ular bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bilim oluvchilarga jamiyat rivojlanish natijasida ona tilimiz sirlarini interfaol va innovatsion metodlar asosida mukammal va milliy-mental jihatdan puxta o‘rganish va o‘rgatish ana shunday zaruriy va dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. Umumta’lim maktablaridan boshlab, oliy ta’lim muassasalarida til o‘qitilishining uzluksizligini ta’minlash, talabalarda imloviy-uslubiy savodxonlikni yanada kuchaytirish, til ko‘nikmalari va nutqiy muloqot kompetensiyasini rivoj topgan darajaga ko‘tarish mexanizmlari yaratilganligida, og‘zaki va yozma shakllardagi nutqiy kompetentlikni shakllantirilganda yaqqol ko‘rinadi.

Adabiyotlar tahlili. “Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz.” [1] Ayniqsa, soha bo‘yicha tizimli islohotlarni amalga oshirish zarururiyati, ta’limning barcha bosqichlarida, ona tili –

o‘zbek tili ta’limi mazmunini modernizatsiyalash[2], oliy o‘quv yurti talabalarida ham o‘z tilida chuqur fikrlash, tinglash, muloqot qila olish ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish va mazkur jarayonlarga innovatsion ta’lim texnologiyalarini tatbiq etish alohida ahamiyat kasb etmoqda. “Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarining tubdan yaxshilashga qaratilgan innovatsion rivojlannsh yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi.[3]

Oliy ta’limda tahsil olayotgan bo‘lg‘usi mutaxassislarning lisoniy-nutqiy kompetentligini rivojlantirish masalalari haqida bahs yuritilganda, albatta, amalga oshirilgan tadqiqotlarda ta’kidlangan fikrlarga tayaniladi. Oliy ta’lim texnik yo‘nalishlar talabalarini har tomonlama komil etib shakllantirishga qaratilgan asosli ilmiy-nazariy fikrlar ko‘plab o‘zbek pedagog olimlari tomonidan qayd etilgan. Jumladan, pedagog olim U.N.Nishonaliyev bo‘lg‘usi mutaxassislarning komillikka erishuvida mashg‘ulotlardagi innovatsion yondashuvlarni bosh masala qilib qo‘yadi.[4] Ped.fan.doktori, professor U.I.Inoyatov esa ta’lim sifatini nazorat qilish hamda boshqarishning nazariy va tashkiliy metodik asoslarini bosh masala qilib qo‘yadi va ularning kasbiy-insoniy fikrlashlaridagi omillardan biri til va nutq kompetentligi ekanligini ta’kidlaydi.[5] Metodist olim M.Sobirovaning fundamental tadqiqotlarida[6,7,8,9,10,11] samarali kasbiy mutaxassislikni rivojlantirishda ta’limdagi yondashuvlarning roli va ahamiyati, yondashuvlarning ta’lim sifatini oshirishdagi nazariy va amaliy jihatlari keng yoritib berilgan. Tadqiqotchi G.Dehqanova izlanishlarida [12] o‘quvchilarga chet tilini o‘rgatishda samarali muloqot texnikasiga tayyorlashning ilmiy-metodik jihatlari takomillashtirish masalasi yoritib beriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada talabalarning til va nutqiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslari, ularning ona tilini bilishi va nutqiy muloqot ko‘nikmalarining darajasini oshirish, bu o‘rinda kasbiy muhim

sifatlar tizimini ajratib ko‘rsatishga karatilishi, til va nutq ko‘nikmalarining ular kasbiy kompetentligiga bog‘liq jihatlari kabi masalalar yoritiladi.

Tahlillar va natijalar. Tahlillar bugun ta’limda, xususan, til ta’limida tub islohotlar amalga oshirilyapgani, o‘qitishdan ko‘zlangan bosh maqsadga erishishning eng optimal va yangi yo‘llarini topish hamda joriy qilish borasida ko‘lamli ishlar olib borilyapganini ko‘rsatmoqda. Bilim oluvchining til kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish borasidagi ilmiy-metodik tadbirlar alohida diqqatga molik. Endi tilni faqat aloqa vositasi sifatidagina emas, balki uni benihoya serqirra mohiyatga ega hodisa sifatida o‘qitish va undan favqulodda maqsadga muvofiq tarzda foydalana bilish malakalarini tarbiyalash tamoyili barqarorlashmoqda. Bu, albatta, til ta’limining bosh maqsadiga tamoman uyg‘un keladigan maqbul tamoyildir, chunki “...til faqat kishilar o‘rtasidagi oddiygina aloqa vositasi emas, balki til egalarining o‘zini qurshab turgan olamni bilish, qo‘lga kiritgan bilimlarini kelajak avlodga yetkazish vositasi hamdir...”

O‘zbek tilli maktablarni tamomlagan texnik yo‘nalishlarda tahsil olib, oliy ta’limga qabul qilingan talabalarda milliy shakllardagi dars jarayonlari rus tilli maktablarni tamomlagan rusiyzabon guruhlarga nisbatan osonroq kechadi. Shuning uchun milliy tilimizni o‘rgatishda o‘zbek xalqining o‘ziga xos hayot tarzi, etnografiyasi va urf-odatlarini tilida saqlanib kelayotganligini aniq va ravshan tushuntirish va singdirish uchun tilning o‘rgatish metodologiyasidagi taqqoslash, qiyoslash va umumlashtirish texnologiyalaridan, metodlaridan samarali va natijali foydalanish zarur bo‘ladi. Talaba tafakkuriga til birligi bo‘lgan tushuncha va atamani mohiyatini anglatgan holda joylanishiga ko‘maklashish o‘zbek tili fani o‘qituvchisining zaruriy vazifasi hisoblanadi. Buning uchun oliy ta’lim professor o‘qituvchisining o‘zi o‘zbek tilida til va nutq ko‘nikmasiga to‘laqonli ega bo‘lishi talab qilinadi. Aks holda til bilishga, nutq rivojlantirishga qaratilgan harakat va yo‘naltirilgan mehnatlar samarasiz, natijasiz bo‘ladi.

Oliy ta’lim talabalarining til va nutqiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslari bo‘yicha yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan

holda shuni aytish mumkinki, til, nutq odobi o‘zbek millati hayotining mag‘zi hisoblanadi. Qaerda, qaysi davrda, qaysi jamiyatda yaxshi xulq va yaxshi nutqiy jihatlar jamiyat vakillarida qaror topsa, o‘sha jamiyat hayoti ravnaq topadi, turmush sharoiti oshadi, tinchlik-totuvlik hukmronlik qiladi.

Til va nutq tarbiyasini bolalikdan boshlash zarurligi barcha mutafakkir olimlar ta’kidida uchraydi. Milliy odob ko‘nikmalari, avvalo, o‘sha millatning tili vositasida singdiriladi, rivojlantiriladi, natijada yosh avlodlarda o‘ziga hamda o‘zga xalqlarga hurmat, milliy g‘urur, vatanparvarlik, millatparvarlik, millatlararo muloqot odobi kabi fazilatlarni shakllantiradi hamda o‘zbek xalqini ma’naviy va moddiy jihatdan boy millatga aylantirishga xizmat qiladi.

Talabalarning ona tilini bilishi va nutqiy muloqot ko‘nikmalarining darajasini oshirish masalalarida diqqat dastlab kasbiy muhim sifatlar tizimini ajratib ko‘rsatishga karatilishi, asosiy e’tibor xam uning tayanch, ham potentsial kasbiy mahoratli shaxsning dinamik o‘ziga xosligini tashhishlash uchun metodik nuqtai nazardan ta’minotiga qaratilib jamlanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, talabalarning mustaqil holda, sheriklari bilan maslahatlashmagan holda ish olib borishlari qiyin kechdi. Yana 3 nafar talaba topshiriqni bajarish uchun ajratilgan vaqt mobaynida jo‘yali, grammatik va sintaktik shakllangan 7 ta gap yoza oldilar. Gaplarning aksari sodda gaplardan tashkil topgan. 13 nafari esa, 5 tadan talab darajasidagi gaplarni yozma ifodalay olganlar. Aksariyat gaplar barcha talabalarda qaytarilgan hamda bir-birlarini takrorlaganlar. 5 nafar talaba 3 tadan gap tuzib, yoza olganlar. 4 nafar talaba takrorlanmagan, 2 tadan sintaktik yozma holda shakllangan gap taqdim eta oldilar.

“O‘zbek tilining leksik qatlamlari” nomli mavzu bo‘yicha talabalar tomonidan tuzilib, taqdim etilgan gaplarning ko‘pchiligi mantiqiy bog‘liqliklarga ega. Biroq sintaktik qurilmalarni yuzaga keltiruvchi so‘z va grammatik shakllarning me’yoriy darajasi to‘liq talabga javob bermaydi. Yordamchi so‘zlarning, grammatik qo‘shimchalarning, ayniqsa, so‘z yasovchi, shakl yasovchi hamda sintaktik munosabat hosil qiluvchi qo‘shimchalarni o‘rinli qo‘llay

olinmagan holatlari kuzatildi.

Tahlillardan ko‘rinadiki, oliy ta‘limda tahsil olayotgan talabalarning o‘zbek tili – ona tilini bilishi va nutqiy muloqot ko‘nikmalarining darajasini oshirish uchun bilim beruvchi pedagog talabalarni badiiy kitoblar o‘qishiga, ko‘proq yozma mashqlarni bajarishiga, lug‘atlar bilan ishlashga ko‘nikma hosil qilishga erishishi talab etiladi.

So‘nggi yillarda kasbiy mahoratli mutaxassislarning har tomonlama rivojlantirish muammosiga, ayniqsa ularning o‘z milliy tilidagi og‘zaki va yozma savodxonligini oshirishga, ularni hal etish yo‘llari va yechimlarini izlab topishga qaratilgan amaliy harakatlar quyidagi holatlar bilan izohlanadi:

1) jamiyatning zamonaviy rivojlanish bosqichida unda amalga oshayotgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, ilmiy-texnikaviy progressning konuniy o‘sib borishi, barcha sohalarda ishlab chiqarishni tezkor rivojlanayotgan davrga mos ravishda texnik-texnologik jihozlar bilan ta‘minlanishi oliy ma‘lumotli mutaxassislarni tayyorlashga yangi talablar va yondashuvlar talabini qo‘ymoqda. Sohalar bo‘yicha o‘zbek tilini o‘rgatish ham oliy ta‘limdagi ana shunday jarayonlarning mahsuli hisoblanadi;

2) mamlakatimiz xalq ho‘jaligi va unga mos ravishda muhandis mehnatiga bo‘lgan yuqori talablarning asosiysi fikr ifodasi, muloqot va ish tashkil etish, ijtimoiy munosabatlar vositasi bo‘lgan tilni sohaviy yo‘naltirilgan darajasini oshirish, mutaxassislarning til bilish va nutqiy darajasini ko‘tarish, rivojlantirish;

3) ijtimoiy buyurtma sifatida o‘zgarishlarga mos shaxsning komilligida uning milliy-mental jihatlarini taraqqiy ettirish bevosita o‘z tili orqali amalga oshishini har bir oliy ta‘lim tahsil oluvchisi ongida shakllantirishning mahsuldor, samarali yo‘l va usullarini ishlab chiqish hamda ularni ommalashtirish, amaliyotga joriy etish;

4) bo‘lg‘usi mutaxassisning shaxsiy psixologiyasini o‘z kasbiga sadoqat va uning xalq hayoti bilan uyg‘unligini ko‘rsatuvchi belgi va vositalar orqali kelajak taqdirini o‘zi aniqlab olish muammosi, hayotiy va kasbiy yo‘lini tanlab olishi va

shu kabilarni ona tili – o‘zbek tili darslari orqali singitishga erishish;

5) o‘zbek tili – ona tili mashg‘ulotlari orqali bo‘lg‘usi mutaxassisning kasbiy mahoratli bo‘lib rivojlanishi muammosining majmuaviy holdaligini unutmay, fiziologik, tibbiy, ruhiy, pedagogik, kasbiy va boshqa omillar orqali yechimlarga erishish;

6) bilish, jamiyat, borliq, shaxs, inson masalalarini anglash so‘z va atamalar orqali ular ongda tasavvuriy shakl va belgilar orqali modellashdiki, buning uchun so‘zlar shaklini, ularning mazmun-mohiyat jihatlarini anglatishga katta e‘tibor qaratish;

7) millat tili, asosiy milliy qadriyat ekanligini, birinchi etnik belgi ekanligini oliy ta‘lim texnik yo‘nalishlari talabalariga murakkablashtirmagan holda, oddiy yo‘l-yo‘riq-ko‘rsatmalar orqali anglab yetishlariga imkoniyat va yo‘nalishlar berish;

8) oliy ta‘limdagi mashg‘ulotlarda har qanday tilning, ayniqsa, o‘zbek tilining vazifalari, estetik jihatlarini, emotsional-hissiy tomonlari insonning komilligi yo‘lida, har kanday faoliyatda mukammallik darajasiga olib boruvchi bir vosita ekanligini anglatish masalalaridagi muammolar o‘z yechimini topgandagina oliy ta‘lim texnik yo‘nalish talabalari til ko‘nikmalarining, nutqiy kompetentlik darajasini oshirib, rivojlantira olamiz.

Mamlakatimizdagi oliy ta‘lim dargohlarida tahsil olayotgan bo‘lg‘usi mutaxassislarning lisoniy-nutqiy kompetentligini rivojlantirish ijodkorlikka, konstruktorlik, ratsionalizatorlik, loyihalarni amalga oshirishda, ularni tatbiq etishda, har qanday rasmiy hujjatlar bilan ishlashda, nazorat qilish, tashkilotchilik, tadqiqotchilik, diagnoz va tahlil kilishda milliy va umumxalq, davlat tili maqomi berilgan ona tilimiz – o‘zbek tili kommunikativlikning asosiy vositasi hisoblanadi. U stimul (motivatsiya) berishning asosiy quroli hisoblanadi.

Xulosalar. Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanayotgan bir vaqtda, jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish ko‘p jihatdan biz yashab turgan jamiyat hamda undagi har bir shaxsning o‘z

ona tilini yaxshi bilish hamda uni amalda, ya’ni nutqiy vaziyat, muhit hamda turli tabaqadagi shaxslar o‘rtasida erkin, aniq, sodda va ravon darajada voqelantira olish darajasiga bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

18. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 124 b.
19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son [Farmoni](#).
20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – B. 23.
21. Nishonaliyev U. Formirovanie lichnosti uchitelya trudovogo obucheniya: problemy i perspektivy. – Tashkent: Fan, 1990. – 88 s.
22. Inoyatov U.I. Teoreticheskie i organizatsionno-metodicheskie osnovy upravleniya kontrolya kachestva obrazovaniya v professional’nom kolledje. Diss. ...dokt. ped. nauk. – Tashkent, 2003. – S. 327.
23. Sobirova M.Y. Ona tili ta’limida antroposentrik yondashuvning ilmiy-metodik asoslari va texnologiyalari: Dis....ped.fan.dokt. – Namangan: 2023. – 256 b.
24. Sobirova, M. (2023). Teaching language phenomena through text analysis on the basis of anthropocentric approach. International bulletin of applied science and technology. Impact factor: 8,2 SJIF = 5.955 ISSN: 2750-3402 Volume 3, Issue 4, April. 481-486-pages. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7827423>
25. Sobirova, M. (2023). Obuchenie yazykovym yavleniyam na osnove analiza teksta. “Etnokulturnyy i sotsiolingvisticheskiy aspekty v teorii i praktike prepodavaniya yazykov v negumanitarnykh vuzax” mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Minsk, 30 mart 2023 y., – B. 299-302. <https://rep.bntu.by/handle/data/130394>
26. Sobirova, M. (2022). In imparting humane education use of integrated technology. In Volume 8, Issue 1, of JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, ISSN No: 2581 – 4230. Impact factor 8.155. VOLUME 8, ISSUE 1, January 2022, Published by Novateur Publication, M.S. India. – P. 151-158. <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/3880/3718>
27. Sobirova, M. (2020). Assimilation of human qualities during the process of working with text. International Scientific Journal “Theoretical & Applied Science” SOI: 1.1/TAS (<http://t-science.org/arxiv> DOI/2020/12-92.html DOI:10.15863/TAS Published: 18.12.2020.



28. Sobirova, M. (2020). The role of the family in the development of the integration process in science and education. "A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal" (<https://journalnx.com/papers/20151362-the-integration-process.pdf>) impact faktorga ega bo‘lgan DOI raqamli jurnali. 2020 y. 18-19 uyun. – B. 1161-1166.
29. Dehkhonova Guljahon (2024)/ Improving the scientific and methodological aspects of preparing students for effective communication techniques and innovative technologies in teaching foreign languages.